



## OYBEK SHE'RIYATIDA O'XSHATISHNING BADIY XUSUSIYATI

**Abdurahmonova Sofiya**

NavDU Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 2-kurs talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15478834>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2025 yil  
Ma'qullandi: 15-May 2025 yil  
Nashr qilindi: 21-May 2025 yil

### KEY WORDS

*O'xshatish, badiiy xususiyat, obraz  
o'xshatishi.*

### ABSTRACT

*Oybek shaxsiyati va faoliyatini begilashda  
o'xshatishlarning o'rni benihoya katta. Oybek vafotidan  
keyin necha yillar o'tmasin, uning ijodi, uning o'lmas  
satrlari xalqimiz yuragida qon kabi gupillab yashab  
turibdi.*

She'riyat – yurakning poklanish vositasi. U insonni idrok etish va his etishga undaydi, o'rgatadi, inson ma'naviy dunyosi chegaralarini tobora kengaytiradi, insondagi estetik qarashlarni tarbiyalaydi. Oybek she'riyati xuddi shunday asl she'riyatdir. Oybek she'riyatini tahlil ostiga tortadigan bo'lsak, uning serqira ijodkor, xalqning sevimli adibi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. She'rlarida satrlardagi har bir so'zni o'rniga quyib, satrlarda esa juda chiroyli o'xshatishlarni maromiga yetkazib kuylaganini guvohi bo'lamiz. Shoir o'z she'rlarida voqea-hodisani hech qanaqa ortiqcha bo'yoqlarsiz, ro'y-u rost haqiqatni baralla kuylagan. Oybek she'riyatida o'xshatishlarni ko'p uchratamiz. Bugungi maqolamizda Oybekning o'xshatishlarini tahlil ostiga olamiz.

Qoshlar, kipriklar qirov  
Yuraman hushsiz, hayron  
Qornim och, esga kelmas  
Xaltamdagi gishtdek non..

Yuqoridagi parchada shoir qosh va kiprigi qirovdek oq ekanligini, xaltasida esa g'ishtdek noni borligini ham esidan chiqarib, sarson yurgan holarini juda chiroyli o'xshatishlar orqali ifodalagan.

Yoki uning " Dengizda oqshom" nomli she'rida:  
Yor ko'zlarining ishqini, xumorini yod et!  
Ko'k gulshani durlar kabi porlaydi bu oqshom  
Har tog'da-yu, qirda yotadi nozli xush orom.  
Dunyodagi ko'zlar aro shahlosini yod et!

O'shbu parchada shoir oyni- ko'k Gulshanni deya o'xshatish qiladi, go'yoki oy ko'kning bir chiroy tarqatuvchi gulshanidir. Shoir baxtiligidan uning ko'ziga butun olam o'zgacha chiroyga to'la ko'rinmaoq. Oyning ko'k gulshani bo'lib, oyning nuri esa dur kabi porlashi o'quvchi hayolotida juda chiroyli jonlanadi. Shoir boshqa she'rlarida ham judayam chiroyli o'xshatishlardan foydalangan.

Oybekning “Oqshom sezgisi” nomli she’rida ham betakror o’xshatishlarni ko’rishimiz mumkin.

Hamon mulkimdagi siym-u zarim- she’r  
Sochimdan, chehralarni yillardan nishon,  
Sajdagohim tanho Vatan, Ona Yer,  
Orzularim- karvon, sarbonim- ishonch.

Yuqoridagi parchada shoir bor boyligi, barcha mulki – she’ri ekanligini chiroyli o’xshatishlar orqali ifodalaydi. Shoir orzularini – karvonga qiyoslaydi, ishonchini esa sarbonga o’xshatadi. Orzularining karvondek uzunligini, bu orzularini ishonadigan shaxs esa sarbon( ya’ni o’zi) ekanligini ta’kidlaydi.

Oybekning “Ko’klam hislari” she’rida bir chiroyli o’xshatish uchratamiz.

Daraxtlar ko’tarmish gul qadahchalar.

Ko’klamning, hayotning sog’ligi uchun...

Yasansa, quvonsa qirlar, bog’chalar

Nega mehnat, yerni maqtamay bugun?

Erta bahorda daraxtlar gullay boshlaydi, shoir shu hodisani daraxtlar ko’tarmish gul qadahchalar deya o’xshatish qiladi . Qadah ko’tarish albatta insonga hos hodisadir, shoir bahorni shu darajada chiroyli ta’riflab, hatto daraxtlarga ham jon ato qilmoqda. Bahor va hayotni borligi uchun daraxtlar gullardan qadah ko’tarmoqda.

Oybek she’riyatini o’qigan inson uning she’rlaridan ko’ngil o’zolmay, uning qahramonlari bilan, uning samimiyati bilan yashashni istay boshlaydi. Yozuvchi o’quvchiga estetik zavaq berish maqsadida she’riyatida ko’plab o’xshatishlardan foydalangan.

Bir narsani boshqa narsaga o’xshatish orqali yorqin va samimiy gohida bo’rttirib tasvirlashimiz mumkin. Oybek she’riyatidagi o’xshatishlarning hammasi o’z o’rnida samiyat uchun xizmat qilmoqda .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Muso Toshmuhammad o’g’li Oybek “She’rlar”. Toshkent: 2023.
- 2.Расулов Т. Бадий тасвир ва образли тасвирий воситалар// Ўзбек тили ва адабиёти, 1965. №5, – Б 10.
- 3.Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва Адабиёти. – Т., 2011. – № 3. – Б.9